

Jizzax viloyatida asosiy iqtisodiy koʻrsatkichlar
2024- yilyanvar-iyun

	<i>Mld. soʻm</i>	<i>2023- yil yanvar-iyuniga nisbatan foiz hisobida</i>
Yalpi hududiy mahsulot		
Sanoat mahsuloti		
Istemol tovarlari		
Qishloq, oʻrmon va baliq xoʻjaligi mahsulot (xizmat) lari		
Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar		
Qurilish ishlari		
Yuk aylanmasi (mln. tn–km)		
Yoʻlovchi aylanmasi (mln. yoʻlovchi.–km)		
Chakana savdo tovar aylanmasi		
Xizmatlar, jami	6 051,1	114,1
Tashqi savdo aylanmasi, (mln. AQSH doll.) ¹⁾		
Eksport		
Import		
Saldo (+,–)		

V. XIZMATLAR



Xizmatlar sohasini rivojlantirish ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishning eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan bozor islohotlari jamiyatni rivojlantirishning eng muhim ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarini hal qilishda xizmat ko‘rsatish sohasining rolini oshirishga katta ta‘sir ko‘rsatadi. Xizmatlarning xilma-xilligi aholi katta qismining hayot sifatini va farovonligini yaxshilash imkonini beradi.

**Xizmatlar
sohasida kichik
tadbirkorlik
ulushi – 60,3%**



**Aholi jon boshiga
xizmatlar hajmi -
3 995,2 ming so‘m**



**Xizmatlar
sohasidagi
korxona va
tashkilotlar
ulushi – 63,7%**



**Xizmatlar sohasining asosiy
ko‘rsatkichlari
(2024- yil yanvar-iyun)**



Xizmatlar sohasini hajmi o‘shish sur‘ati
o‘tgan yilning mos davriga nisbatan
114,1 foizni tashkil etdi.





**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan
(ko'rsatilgan) bozor xizmatlarining hajmi**

	<i>Miqdori, (mlrd.so'm)</i>	<i>O'sish sur'ati, foiz</i>	<i>Jamiga nisbatan foizda</i>
Xizmatlar – jami	6 051,1	114,3	100,0
<i>shu jumladan asosiy turlari bo'yicha:</i>			
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	253,7	114,8	4,2
moliyaviy xizmatlar	1 363,1	100,7	22,5
transport xizmatlari	762,1	114,3	12,6
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	728,2	112,1	12,0
yashash va ovqatlanish xizmatlari	194,1	109,5	3,2
savdo xizmatlari	2 181,4	129,3	36,0
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	126,0	120,3	2,1
ta'lim sohasidagi xizmatlar	247,9	116,8	4,1
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	112,6	107,5	1,9
ijara xizmatlari	81,5	107,0	1,3
kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	138,3	108,8	2,3
shaxsiy xizmatlar	157,4	106,9	2,6
me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	76,5	105,9	1,3
boshqa xizmatlar	356,5	100,6	5,9

Xizmatlar tarkibida eng katta ulushni savdo xizmatlari (36,0 %), moliyaviy xizmatlar (22,5%), transport xizmatlari (12,6 %) hamda boshqa xizmatlar (5,9 %) tashkil etdi.


Xizmatlar umumiy hajmida past ulushlarni shaxsiy xizmatlar va me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (1,3 %) hamda sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (1,9 %) egalladi.



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar tarkibining o'sish sur'atlari, %da


(2024- yil yanvar-iyun oylari uchun)

■ 2022-yil yanvar-iyun ■ 2023-yil yanvar-iyun ■ 2024-yil yanvar-iyun






Xizmatlar tarkibida mulkchilik shakllari ulushlarining o'zgarish dinamikasi, % da



Bozor xizmatlarining umumiy hajmida savdo xizmatlari eng yuqori ulushni (36,0 %) tashkil etdi. Savdo oddiy taqsimlash mexanizmidan iste'molchiga yo'naltirilgan bozor talablarini shakllantirish jarayonlarida faol ishtirokchiga aylandi. Hozirgi vaqtda, savdo xizmatlari iqtisodiyotda ko'rsatilgan jami xizmatlar hajmining sezilarli qismi hisoblanadi.

Savdo xizmatlari tarkibida chakana savdo (avtomobillar va motosikllar savdosidan tashqari) xizmatlari yuqori ulushni tashkil etadi – 54,2 foiz, avtomobil ulgurji va chakana savdo xizmatlari 40,0 foiz va ulgurji savdo xizmatlari 5,8 foizni tashkil etdi.





**Savdo xizmatlari hajmi va o'sish darajasining hududlar
kesimida taqsimlanishi**
(2024- yil yanvar-iyun)


	<i>Mlrd.so'm</i>	<i>2023- yil yanvar-iyuniga nisbatan foiz</i>	<i>Jami xizmatlar hajmida hududlarning ulushi, foizda</i>
Jizzax viloyati	2 181,4	129,3	100,0
<i>shahar:</i>			
Jizzax	983,9	157,4	45,1
<i>tumanlar:</i>			
Arnasoy	46,5	119,5	2,1
Baxmal	178,2	106,9	8,2
G'allaorol	238,9	126,7	10,9
Sharof Rashidov	182,7	112,6	8,4
Do'stlik	66,7	110,4	3,1
Zomin	154,3	111,2	7,1
Zarbdor	69,6	114,9	3,2
Zafarobod	36,9	111,8	1,7
Mirzacho'l	46,3	110,9	2,1
Paxtakor	68,5	87,4	3,1
Forish	91,6	119,1	4,2
Yangiobod	17,3	108,8	0,8

Savdo xizmatlari hududlar bo'yicha tahlil qilinganida, o'tgan yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Jizzax shahrida (157,4 %), G'allaorol (126,7 %), Arnasoy (119,5 %) va Forish (119,1 %) tumanlarida qayd etildi.

Yuqori bo'lmagan o'sish sur'atlari esa, Paxtakor (87,4 %) va Baxmal (106,9 %) tumanlarida qayd etildi.



Savdo xizmatlarining umumiy hajmida hududlar ulushi, % da
(2024- yil yanvar-iyun)




Savdo xizmatlari bo'yicha yuqori ulushga ega bo'lgan hududlar Jizzax shahri (45,1%), G'allaorol (10,9 %), Sharof Rashidov (8,4 %), Baxmal (8,2 %), Zomin (7,1 %) va Forish (4,2 %) tumanlari hisoblanadi.

Yuqori ulushga ega bo'lmagan hududlar esa, Yangiobod (0,8 %), Zafarobod (1,7%), Arnasoy va Mirzacho'l (2,1 % dan) tumanlaridir.




Transport xizmatlarining tarkibi, % da
(2024- yil yanvar-iyun)



Xizmatlar tarkibida savdo va moliya xizmatlaridan keyin transport xizmatlari ulushi (12,6 %) yuqoriligini ko'rish mumkin.

Shuningdek, qayd etish joizki yuklar va yo'lovchilarni tashish bo'yicha xizmatlar hajmi oshishining asosiy omillari – bu yangi bino va inshootlarni qurish va rekonstruksiya qilish, sanoat zonalarini tashkil etish va kengaytirish, savdo tarmoqlarini kengaytirish, turizm faoliyatini rivojlantirish hisoblanadi.

Transport xizmatlari tarkibida avtomobil transportining ulushi 12,0 foiz bilan asosiy ustunlikka ega.

	Transport xizmatlari hajmi va o'sish darajasining hududlar kesimida taqsimlanishi (2024- yil yanvar-iyun)
---	---

	<i>Mlrd.so'mda</i>	<i>2023- yil yanvar-iyuniga nisbatan foizda</i>	<i>jami xizmatlar hajmida hududlarning ulushi, foiz</i>
--	--------------------	---	---

Jizzax viloyati	762,1	114,3	100,0
------------------------	--------------	--------------	--------------

shahar:

Jizzax sh.	148,3	113,1	19,5
------------	-------	-------	------

tumanlar:

Arnasoy	5,5	109,7	0,7
---------	-----	-------	-----

Baxmal	63,1	112,1	8,3
--------	------	-------	-----

G'allaorol	59,6	113	7,8
------------	------	-----	-----

Sharof Rashidov	251,8	113,6	33,0
-----------------	-------	-------	------

Do'stlik	29,9	169,9	3,9
----------	------	-------	-----

Zomin	66,1	112,4	8,7
-------	------	-------	-----

Zarbdor	25,5	110,4	3,3
---------	------	-------	-----

Zafarobod	10,3	110,4	1,4
-----------	------	-------	-----

Mirzacho'l	9,1	111,1	1,2
------------	-----	-------	-----

Paxtakor	21,2	111,8	2,8
----------	------	-------	-----

Forish	67,4	112	8,8
--------	------	-----	-----


Yangiobod	4,3	109,2	0,6
-----------	-----	-------	-----

Tumanlar o'rtasida transport xizmatlari bo'yicha o'tgan yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Do'stlik (169,9 %), Sharof Rashidov (113,6 %) tumanlari va Jizzax shahri (113,1 %) da qayd etildi.

Transport xizmatlari bo'yicha uncha yuqori bo'lmagan o'sish sur'atlari qayd etilmadi.



**Transport xizmatlarining umumiy hajmida
hududlarning ulushi, % da
(2024- yil yanvar-iyun)**



Transport xizmatlari bo'yicha yuqori ulushga ega hududlar sifatida Sharof Rashidov (33,0 %), Jizzax shahri (19,5 %), Forish (8,8 %), Zomin (8,7 %) va Baxmal (8,3 %) tumanlari qayd etildi.


Axborot texnologiyalarining rivojlanishi insonning zamonaviy turmush tarziga sezilarli darajada ta'sir qiladi. Yildan-yilga odamlar internet va mobil telefonlardan foydalangan holda operatsiyalarni amalga oshirish uchun ko'proq imkoniyatlarga ega bo'lmoqda. Zamonaviy biznesni rivojlantirishda axborot va xizmatlardan real vaqtda masofaviy erkin foydalanish huquqi muhim o'rin tutadi.

Bugungi kunda Jizzax viloyatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini (AKT) davlat boshqaruvi tizimida, iqtisodiyotning tarmoqlarida, ijtimoiy soha va odamlarning kundalik hayotida joriy etishni izchil amalga oshirishga qaratilgan keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda.

2024- yilning yanvar-iyun oylarida Jizzax viloyati bo'yicha aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi 253,7 mlrd. so'mga teng bo'ldi. 2023- yilning mos davriga nisbatan aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining o'sishi 114,8 foizni tashkil etdi.




**Jizzax viloyatida aloqa va axborotlashtirish
xizmatlarining o'sish sur'ati, % da
(2024- yil yanvar-iyun)**



Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida eng katta ulush (92,7 %) telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, internet, yo'ldosh aloqa xizmatlari va h.k.) hissasiga to'g'ri keldi.



**Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari tarkibi, % da
(2024- yil yanvar-iyun)**



Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) va moliya-kredit muassasalari xizmatlari tez rivojlanayotgan xizmat turlari hisoblanadi. Yangi texnologiyalarga va bozorni erkinlashtirish natijalariga tayanib, bu faoliyat turlari hozirgi vaqtda rivojlanishning yangi bosqichi sifatida paydo bo'ldi va bugungi kunda jamiyatning texnologik taraqqiyoti va iqtisodiyotning globallashtirishida hal qiluvchi rol o'ynaydi.


Ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirish, AKT sohasida innovatsiyalarni joriy etish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida yangi turdagi xizmatlarning paydo bo'lishi aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmini oshirishga ta'sir ko'rsatadi.

Pul-kredit tizimini isloh qilish dasturida bank tizimini barqarorligini ta'minlash, xalqaro standartlarga muvofiq bank faoliyatini yanada takomillashtirish, qo'shimcha investitsiyalarni jalb qilish, bank va sug'urta tashkilotlariga ko'rsatiladigan axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda yangi xizmat turlarini joriy etish, moliyaviy xizmatlar hajmini yanada kengaytirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Natijada, 2024- yil yanvar-iyun oylarida ko'rsatilgan moliyaviy xizmatlar hajmi 1 363,1 mlrd. so'mga teng bo'ldi va o'sish sur'ati 100,7 foizni tashkil etdi.




**Jizzax viloyatida moliyaviy xizmatlarning
o'sish sur'ati dinamikasi, % da
(2024- yil yanvar-iyun)**





Moliyaviy xizmatlarning tarkibi, % da (2024- yil yanvar-iyun)



Valyuta siyosatini erkinlashtirish, shuningdek, istiqbolli investitsiya loyihalarini kreditlash ko'lamini kengaytirish, moliyaviy tashkilotlar tomonidan innovatsion xizmatlar ko'rsatish (kredit berish va depozit hisob raqamlarni ochish bo'yicha elektron xizmatlar ko'rsatish) borasida amalga oshirilayotgan islohotlar moliyaviy xizmatlar hajmining oshishiga ta'sir ko'rsatdi.

Moliyaviy xizmatlar umumiy hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar ulushi (92,8 %) ustunlik qilmoqda. Moliyaviy xizmatlar umumiy hajmida sug'urta xizmatlarining ulushi 6,2 foizni, yordamchi moliyaviy faoliyat 1,0 foizni tashkil etdi.




Bozor xizmatlari hajmi va o'sish sur'atining hududlar kesimidagi holati

	Jami			Aholi jon boshiga	
	mlrd. so'm	2023- yil yanvar- iyuniga nisbatan foiz	Jami xizmatlar hajmida hududlarning ulushi, foizda	ming so'm	2023- yil yanvar- iyuniga nisbatan foizda
Jizzax viloyati	6 051,1	114,1	100,0	3 995,2	111,8
<i>shahar:</i>					
Jizzax	2 970,3	123,9	49,1	15 093,0	121,3
<i>tumanlar:</i>					
Arnasoy	99,6	102,8	1,6	2 037,9	101,3
Baxmal	408,2	103,3	6,8	2 381,5	101,0
G'allaorol	451,3	111,3	7,5	2 402,9	108,9
Sharof Rashidov	661,5	107,1	10,9	2 706,5	104,5
Do'stlik	159,2	106,7	2,6	2 267,9	105,0
Zomin	424,9	108,3	7,0	2 352,8	105,7
Zarbdor	178,3	101,6	2,9	1 874,9	99,5
Zafarobod	125,3	102,0	2,1	2 253,5	100,4
Mirzacho'l	89,6	101,4	1,5	1 662,3	99,5
Paxtakor	214,0	105,1	3,5	2 632,3	103,1
Forish	234,6	104,9	3,9	2 376,7	103,4
Yangiobod	34,3	104,4	0,6	1 147,1	103,0

Xizmatlar sohasining rivojlanishida eng katta ulush Jizzax shahri (49,1 %), Sharof Rashidov (10,9 %) va G'allaorol (7,5 %) tumanlarida kuzatildi.



Jizzax viloyati bo'yicha xizmatlarning umumiy hajmida hududlarning ulushi, % da
(2024- yil yanvar-iyun)




Ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmida eng kichik ulushlarni Yangiobod (0,6 %), Zafarobod (1,5 %) va Arnasoy (1,6 %) tumanlari qayd etdi.


Aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Jizzax shahrida (15 093,0 ming so'm) bo'lib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 121,3 foizni tashkil etdi.



Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining hududlar bo'yicha hajmi va o'sish sur'ati, % da
(2024- yil yanvar-iyun)



Aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlarning eng past ko'rsatkichi Yangiobod (1 147,6 ming so'm), Mirzacho'l (1 662,3 ming so'm) va Zarbdor (1 874,9 ming so'm) tumanlarida kuzatildi.



2023-yilning mos davriga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning o'sish sur'ati 109,5 foizni tashkil etdi, hajmi esa 44,7 mlrd. so'mga ko'paydi va 194,1 mlrd. so'mga yetdi.

Ushbu turdagi xizmatlar o'sish sur'atlarining pasayishiga dam olish uylari, bolalar lagerlari, kottedjlar va boshqa dam olish maskanlari xizmatlariga bo'lgan aholining talabi kamayganligi sezilarli ta'sir etganligini qayd etish lozim.




Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi, % da (2024- yil yanvar-iyun)



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmining asosiy qismini oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi (88,0 %) tashkil etadi.



Hududlar kesimida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning o'sish sur'atlari (2024- yil yanvar-iyun)




Qayd etish joizki, Zomin tumanida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 196,0 foizni tashkil qildi.

Joriy yilning yanvar-iyun oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar jami xizmatlar hajmining 4,1 foizini tashkil etib 247,9 mlrd. so'm, ya'ni o'tgan yilning shu davriga nisbatan 4,1 foizga o'sdi. Hududlar bo'yicha tahlil qilinganda Baxmal tumanida 35,5 foizga o'sib, bu sohada ytakchilik qilmoqda.



2024- yil yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha ta'lim sohasida ko'rsatilgan xizmatlarning o'sish sur'ati,foizda



Xizmatlar ko'rsatishning mazkur sohasida yuqori o'sish sur'atlari Jizzax shahri (118,6 %), Do'stlik (110,8 %) va Zarbdor (108,4%) tumanlarida kuzatildi.


2024-yil yanvar-iyun oylarida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar jami 112,6 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 107,5 foizga o'sdi va jami xizmatlardagi ulushi 1,9 foizni tashkil etdi.

Hududlar bo'yicha tahlil qilinganda, eng yuqori o'sish sur'ati Zomin (114,1 %), Baxmal (107,2 %) va G'allaorol (105,4 %) tumanlarida kuzatildi.



2024- yil yanvar-iyun oylarida sog'liqni saqlash sohasida ko'rsatilgan xizmatlarning hududlar bo'yicha o'sish sur'ati, % da

	Xizmatlar jami, mlrd.so'm	O'sish sur'ati, foizda
2022-y.	75,2	104,3
2023-y.	93,1	98,4
2024-y.	112,6	107,5



2024-yil yanvar-iyun oylarida sog'liqni saqlash xizmatlari hajmi 112,6 mlrd. so'mni tashkil etdi. Xizmatlarning umumiy hajmidagi ulushi 1,9 foizni tashkil etdi.

2023-yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 107,5 foizni tashkil etdi.



Taqqoslash uchun:

2023- yil yanvar-iyun oylarida ushbu xizmatlar hajmi 93,1 mlrd. so'mni yoki ularning umumiy xizmatlar hajmining 1,9 foizini tashkil etgan.

Sog'liqni saqlash sohasida ko'rsatilgan xizmatlarning hududlar bo'yicha sur'atlari solishtirilganida Zafarobod (100,7 %), Zarbdor (101,7 %), Yangiobod (101,8 %) tumanlari past sur'atlarda ekanligini ko'rishimiz mumkin.